

QORAQALPOQ XALQ ZARGARLIGI

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti “Amaliy san’at fakulteti”, “Amaliy san’at asarlarini ta’mirash” ta’lim yo‘nalishi
4-bosqich talabasi **Alpisbaeva Juldiz Bayram qizi**

Annotatsiya: XIX-XX asr boshlarida zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish barcha savdo va hunarmandchilik markazlarida keng tarqalgan. Har bir katta ovullar o‘zlarining zargari mavjud edi. Qoraqalpoq zargarlari o‘z mahsulotlari uchun kumush, oltin, bronza, serdolik va firuzaga oid toshlar, shuningdek, marjon, yirtqich hayvon va qushlarning tirnoq va qoziqtishlardan foydalanishgan.

Kalit so‘zlar: zargarlik, qoraqalpoq amaliy san’ati, izlanishlar, “shar tuyme”, “jez bilezik”, “jalpaq sirga”, “baldaqli sirga”, “arebek”, “ongirmonshaq”, “saukele.

XIX-XX asr boshlarida zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish barcha savdo va hunarmandchilik markazlarida keng tarqalgan. Har bir katta ovullar o‘zlarining zargari mavjud edi. Qoraqalpoq zargarlari o‘z mahsulotlari uchun kumush, oltin, bronza, serdolik va firuzaga oid toshlar, shuningdek, marjon, yirtqich hayvon va qushlarning tirnoq va qoziqtishlardan foydalanishgan. Qoraqalpoq zargarlik san’ati uslubi o‘zining hashamati, simmetrik shakli va jonli aylana konturlari bilan ajralib turadi. Zargarlar asosan ayollar zargarlik buyumlari va bolalar tumorlarini ishlab chiqarishgan. Erkaklar uchun, uzuklar, kamarlar va kamar to‘qasi, qurol-yarog‘ qismlari va ot anjomlari yasalgan. Barcha zargarlik buyumlari yovuzlikdan asrovchi va baxtga eltuvchi tumorlar hisoblangan. Qoraqalpoq zargarlik sanati haqida toxtalib otadigan bolsak, qoraqalpoqlar Orta Osiyo va Qozogistonning boshqa xalqlari singari qadimdan zargarlik bilan shugullanganlar. Zargarlik qoraqalpoq xalqi ananaviy kasbining eng kam organilgan sohasi bolib, u etnografik adabiyotlarda juda kam yoritilgan. Shuningdek, tarixiy va etnografik tadqiqotlarni organar ekanmiz, birinchi navbatda uning nazariy —uslubiy jihatlariga tayangan holda ilmiy xulosa chiqarishga etibor qaratiladi, hamda xalq ananaviy hunarmandchiligi turlarining otmishda va bugun ham dehqonchilik, chorvachilik, sanoat ishlab chiqarishi, zamonaviy sanoat bilan bir qatorda jamiyat madaniy va iqtisodiy hayotida muhim ahamiyat kasb etishini unutmashimiz kerak.

Maqola etnologiya metodlari -etnografik dala tadqiqotlari asosida, xususan, bugungi kunda Qoraqalpogiston Respublikasi, Beruniy tumanida istiqomat qiluvchi aka-uka Said, Hamid Samatovlar oltindan buyurtmaga kora zargarlik buyumlarini yasash bilan shugullanib kelayotganliklari, shuningdek, 1996-yil Beruniy tumanida tugilgan axborotchi Alimov Shoxrux ham, asosan kumushdan buyurtmaga kora uzuk, zirak, boyinga taqadigan zanjir, bilaguzuk kabi zargarlik buyumlarini yasashini va sulolaning 3-avlodi ekanligini tasdiqlagan axborotchilar bergan malumotlar kiritilgan.[9,1] Zargarlar tomonidan olingan anketa sorovlari natijalari va ilmiy adabiyotlar bilan umumlashtirilib tarixiy izchillik va qiyoslash metodi orqali tahlil qilingan. Qoraqalpoqlar etnografiyasini organish 1917 yilgi ozgarishlardan keyin tizimli va keng miqyosda amalga oshirilgani bois, masala qoraqalpoq xalq amaliy sanatini organgan A.S.Morozova, S.P.Tolstov, T.A.Jdankolarning dala tadqiqotlari va ilmiy maqolalari orqali, shuningdek, sanatshunos kabi bir qancha etnografik manbalari asosida toplangan. Xususan, T.A.Jdanko SSSR FA Etnografiya instituti va Qozogiston ekspeditsiya jamiyatining Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi materiallari asosida “Qoraqalpoq xalq bezak sanatini organish” nomli maqolasida qoraqalpoqlarning bezak sanata alohida etibor qaratilganligini qayd etish lozim. Shuningdek, T.A.Jdanko 1958-yilda SSSR FA Xorazm arxeologiya va etnografiya ekspeditsiya dala tadqiqotlari asosida “Qoraqalpoqlarning xalq bezak sanati” nomli asarida hunarmandchilikning quyidagi: yogoch oymakorligi, zargarlik, kashtachilik, kigiz bosish turlari haqida malumot bergan. Qoraqalpoq ayollarining ulkan ko’krak zargarlik buyumlarida (haykel) shoxi tepaga qayrilgan buqa va shoxi pastga qayrilgan qo’y tasvirlari bilan bog’liq shoxsimon uchlari bo’lgan. “Xaykel” nomi ularning ajdodlarining sig’inishlari va totemizmdan kelib chiqqan. Kuchli buqa vaserpusht qo’yning shoxi yovuz kuchlardan asrovchi xususiyatga ega deb hisoblangan va “oy buqasi” va “quyosh qo’yi” ramzlari sifatida ko’rilgan. Boshqa turdagi qoraqalpoq zargarlik buyumlari, qal’a devori (boshpana ramzi) va gullagan uch barg butasi (Umayramzi - homilador ayol va bolalar himoyachisi) tasvirlarini o’zida aks ettirgan edi. Zargarlik buyumining markazida tumor-kovak g’ilof bo’lib, uning ichida qadimdan “yovuzlik kuchlaridan asrovchi” igna saqlangan. Hududga Islom dini kirib kelganidan so’ng, ignaning o’rnini qog’ozda yozilgan duo egalladi. Xaykel kelin sepining asosiy zargarlik buyumi hisoblangan. Uni kelin, farzand ko’rishgacha

bo'lgan butun davr davomida tumor qilib taqib yurgan. Qadimda turmushga chiqqan qoraqalpoq ayollarni oltin yoki kumush arebek deb nomlangan burun uzugini taqib yurishgan. Shunga o'xshash burun uzuklari turkmanlar, o'zbek-qipchoqlari, arablar va boshqalarda uchragan. Qoraqalpoq ayollari qo'l bilaguzuklari qatorida: relyef bezakli og'ir quyma bilaguzuk (kuyma-bilezik), hamda, “ilon izi” naqshli va ikki-uch qator serdolikli katta bilaguzuk (xasil-tasli-bilegizik)lar alohida ajralib turgan. Bilaguzukning uchi, yirtqich hayvonlarning tishlari va panjasini eslatadi.

Aholining zargarlik buyumlariga talabi katta bolgani bois, mijoz oz buyurtmasini bir necha oy kutishga majbur bolgan. Zargarlar mahsulotlarida deyarli farq bolmagan, ular bir turdagi zargarlik buyumlarini yasaganlar. Zargarlik buyumlarini yashash uchun on yilgacha vaqt kerak bolgan, shuning uchun qoraqalpoq zargar ustalari imkon qadar oz ogli, yaqin qarindoshining ogli, oila azolariga yoshligidan zargarlik sirlarini orgatishga harakat qilgan. Xususan, axborotchilar bergan malumotlarga kora, bugungi kunda Qoraqalpogiston Respublikasi, Beruniy tumanida istiqomat qiluvchi aka-uka Said, Hamid Samatovlar oltindan buyurtmaga kora zargarlik buyumlarini yasash bilan shugullanib kelayotganliklarini aytib otdi. Shuningdek, 1996-yil Beruniy tumanida tugilgan axborotchi Alimov Shoxrux ham, asosan kumushdan buyurtmaga kora uzuk, zirak, boyinga taqadigan zanjir, bilaguzuk kabi zargarlik buyumlarini yasashini va sulolaning 3-avlodi ekanligini takidlab otdi. [9, 1] Qoraqalpoq zargarlari ayollar bezaklarining barcha turlarini: sirga (sirga), bilaguzuk (bilezik), uzuk (juzik), qisqich (qarsyilgek), kokrak bezaklari (xaykel), ongirmonshaq, turli xil tugma va broshlar (tuime), tumor (tumarsha) yasaganlar. Aynan bu davrda milliy libos kiygan qoraqalpoq ayol va qizlarini bayramlarda, oilaviy tantanalarda rang —barang kumush taqinchoqlarsiz tasavvur qilib bolmagan. Keng tarqalgan ayollar taqinchoqlaridan biri bu —bilaguzuk (bilezik) maxsus qoliplar yordamida yasalgan va zargar bir vaqtning ozida ikkitadan beshtagacha bilaguzuk ustida ishlay olgan. Bilaguzuklar koproq kumushdan tayyorlangan va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan. Odatda bunday bilaguzuklar turmushga chiqayotgan qizning qoliga taqilgan. Zargarlar har xil turdagi sirgalar ham yasagan bolib, ular “jalpaq sirga”, “baldaqli sirga” deb atalgan, uni 12 yoshdan to turmushga chiqquniga qadar taqib yurishgan.

Zargarlik sanati -qoraqalpoq amaliy sanatining yorqin va oziga xos korinishlaridan biridir. Qoraqalpoq xalq amaliy sanatining boshqa turlari qatorida zargarlik buyumlarining xom-ashyosi va ishlab chiqarish texnikasi M.Osiyoning boshqa xalqlarinikidan tuzilishi jihatidan ajralib turgan. Shuningdek, zargarlik sanati xalqning etnik tarixi, madaniyati va iqtisodiy munosabatlarini organishda qimmatli manbadir. Xulosa ornida yana shuni aytish mumkinki, Markaziy Osiyoda ozing qadimdan shakllanib kelgan boy etnografik ananalarini hozirda ham saqlab qolgan qoraqalpoq xalq hunarmandchiligi XX asrda ham turli transformatsion jarayonlarga qaramay azaliy ananalarini malum bir manoda saqlab qola olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://karakalpakstan.travel/jewellery/?lang=uz>
2. Usanov, Q., & Xudayarova, M. (2023). O ‘ZBEK, RUS VA QORAQALPOQ TILLARIDA OTLARNING KELISHIK KATEGORIYALARINING QIYOSIY TADQIQI.
3. Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук, 3(6), 54-56.
4. Жданко Т.А. Очерки исторической этнографии каракалпаков. племенная структура и расселение в XIX-начале. М.Л., Изд-во Акад.наук СССР, 1950
5. Отемисов А. Каракалпаklarдың енер-кэсиплери. Нокус, 1991.
6. Алиева З.Ж. К вопросу классификации женских ювелирных украшений каракалпаков //Сб. НИИ искусствознания «Санъатшунос». Ташкент, 1998, с. 44-50; ее же: Ритуальные ювелирные украшения каракалпаков XIX -начала XX в. (в комплексе народного женского костюма) // 8АЫАТ, Ташкент, 2003, No 2,
7. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Т.2005 3-ж.
8. Ўзбекистон хунармандчилиги ва амалий санъати Энциклопедия. II-ж.
9. Ўзбекистон хунармандчилиги ва амалий санъати Энциклопедия. II-ж.
10. Жданко Т. А., Камалов С. К. Этнография Каракалпаков. XIX-начало XX века (Материалы и Исследования) Ташкент издательство „Фан“ Узбекской ССР. 1980.